



MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Jumayeva Sayyora Baxromovna

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti
Buxgalteriya hisobi va audit ta’lim yo’nalishi talabasi

ANNOTATSIYA.

Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jalb qilingan investitsiyalar va hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni va ulushi tahlilini o‘z ichiga oladi.

WAYS TO IMPROVE THE ATTRACTION OF FOREIGN INVESTMENTS TO THE ECONOMY OF OUR COUNTRY

ANNOTATION.


This article includes an analysis of the number and share of enterprises with foreign investments in the region of investments involved in the economy of the Republic of Uzbekistan.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ НАШЕЙ СТРАНЫ

АННОТАЦИЯ.

В данной статье проведен анализ количества и доли предприятий с иностранными инвестициями в регионах, задействованных в экономике Республики Узбекистан.

So‘nggi yillarda iqtisodiyot jadal rivojlanayotgan sharoitda O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi nufuzi va obro‘ining sezilarli darajada oshib borishida hamda iqtisodiy barqarorlik darajasining o‘shib borishida mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Investitsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishning bosh omili hamda davlatning doimiy va o‘shib boruvchi iste’mol ehtiyojlarini ta’minlash imkonini beruvchi ne’matlarini yaratishga qodir yagona vositadir. Milliy iqtisodiyot uchun xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni jadallashtirishga, barqaror moliyalashtirish manbasiga ega bo‘lishga, zamonaviy texnologiyalar va savdo belgilarining kirib kelishiga va





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-5


raqobatbardosh muhitning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga alohida e‘tibor qaratilgan.

2005-yil 11-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘chimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonda chet el investorlari uchun qulay shart-sharoitlar belgilab berilgan. Shular jumlasidan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo‘yicha daromad (foyda) solig‘i, mulk solig‘i, ekologiya solig‘i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to‘lashdan ozod qilinadi. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasiga iqtisodiyotiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda (1-jadval).

1-jadval

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi (foiz hisobida)

Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O‘zbekiston Respublikasi	23.8	24.3	43.6	42.7	42.3	42.8
Qoraqolpog‘iston Respublikasi	10.0	23.7	36.9	38.9	37.4	38.7
Andijon viloyati	7.2	14.8	39.6	36.3	45.6	48.4
Buxoro viloyati	71.0	44.0	53.9	48.2	58.5	58.4
Jizzax viloyati	10.8	8.7	48.8	61.9	44.5	47.3
Qashqadaryo viloyati	18.0	51.1	70.3	69.3	53.6	47.0
Navoiy viloyati	24.2	34.0	39.9	67.8	61.3	54.4
Namangan viloyati	31.6	33.5	45.8	37.2	29.8	34.7
Samarqand viloyati	2.8	4.7	27.8	27.0	34.9	52.7
Surxondaryo viloyati	11.5	21.4	66.3	60.1	45.2	42.3





Sirdaryo viloyati	4.6	9.6	44.8	48.7	59.8	79.1
Toshkent viloyati	12.0	9.6	26.0	26.7	34.3	32.4
Farg‘ona viloyati	5.8	19.4	42.7	41.3	39.1	44.8
Xorazm viloyati	6.8	8.5	42.5	32.0	33.5	32.3

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida ishlab chiqildi.


Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston iqtisodiyotida asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi oshib borgan. Mazkur ko‘rsatkich 2022-yilda 2017-yilga nisbatan qariyb 19 foizga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. Eng keskin o‘ish sur‘ati 2019-yilda kuzatilgan. Biroq, 2019-yil dekabr oyida yuzaga kelgan koronavirus pandemiyasi oqibatida nafaqat O‘zbekistonda, balki butun jahon iqtisodiyotida global inqirozni yuzaga keltirdi. Tahlil etilgan davr ichida 2020-yilda iqtisodiyotga jalb etilgan xorijiy investitsiyalarning 2019-yilga nisbatan 0,9 foizli punktga kamaygan, biroq, 2017-yildagi xorijiy investitsiyalar hajmiga nisbatan taxminan 2 marotabaga yuqori foizni tashkil etgan. Agar bu jadvalni viloyatlar kesimida tahlil etsak, so‘nggi uch yilda, ya‘ni 2020-2021-2022-yillarda bu ko‘rsatkich o‘sganini, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida esa o‘zgarib turganini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakatda xo‘rijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni keskin ortib bormoqda. Quyidagi 2-jadvalda O‘zbekiston hududlari kesimida faoliyat yuritayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni keltirilgan (2-jadval).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yil 1-sentabr holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 12 750 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilning 1-fevral holatiga xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 14 199 tani tashkil etgan (2-jadval).

O‘zbekiston hududlari kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni va ulushi

No	Hududlar	2023-yil	2024-yil
----	----------	----------	----------






		Soni	Jamiga nisbatan ulushi, foizda	Soni	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
1	Toshkent shahri	8 139	63,8%	9240	65.01%
2	Toshkent viloyati	1 457	11,4%	1597	11.2%
3	Samarqand viloyati	543	4,3%	565	3.9%
4	Farg‘ona viloyati	441	3,5%	502	3.5%
5	Surxondaryo viloyati	336	2,6%	348	2.5%
6	Andijon viloyati	308	2,4%	309	2.2%
7	Buxoro viloyati	298	2,3%	341	2.4%
8	Namangan viloyati	210	1,6%	231	1.6%
9	Navoiy viloyati	202	1,6%	218	1.5%
10	Sirdaryo viloyati	191	1,5%	204	1.4%
11	Jizzax viloyati	175	1,4%	178	1.3%
12	Qashqadaryo viloyati	169	1,3%	163	1.1%
13	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	155	1,2%	171	1.2%
14	Xorazm viloyati	126	1,0%	132	0.9%

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida ishlab chiqildi.

Bu jadvaldan shuni tahlil qilishimiz mumkinki, mamlakatimizda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonlar soni 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 1449 taga oshgan. Bunda eng ko‘p hissa qo‘shgan hudud Toshkent shahri hisoblanadi. Bu jadvalni tahlil qilar ekanmiz, bunda mamlakatimiz hududida xorijiy investitsiya asosida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni respublika hududlari bo‘yicha o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi eng ko‘p korxonalar quyidagi davlatlar ishtirokida tashkil etilgan:

- Rossiya – 2849 ta yoki jamiga nisbatan 22,3 foiz;
- Xitoy – 1929 ta yoki jamiga nisbatan 15,1 foiz;
- Turkiya – 1719 ta yoki jamiga nisbatan 13,5 foiz;
- Qozog‘iston – 949 ta yoki jamiga nisbatan 7,4 foiz;
- Janubiy Koreya – 696 ta yoki jamiga nisbatan 5,5 foiz.





Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanishdagi o'ziga xos xususiyatlar va mavjud muommalardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

1. Respublikamizning hududlari kesimida chet el investitsiyalarini mutanosib ravishda jalb etish va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish;
2. Hududlardagi mavjud resurs salohiyatidan kelib chiqqan holda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga e'tiborni kuchaytirish;
3. Investitsiyalarni jalb etish bo'yicha mamlakatimizda mavjud imkoniyatlarni xorijiy investorlarga faol targ'ib qilish, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda O'zbekistonning investitsion salohiyatini keng yoritishni tashkil etish;

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, amalga oshirilayotgan islohotlar va amaliy ishlar natijasida mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanib, aholi farovonligi oshib bormoqda. Hozirgi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotini jadal tarzda rivojlantirishning asosiy shartidan biri - investitsiyalarni faol jalb etishdir. Shu qatorda respublikamiz bo'yicha xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun ham qator islohotlar olib borilmoqda va bu o'z natijasini bermoqda. 2019-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davrda mamlakatimizda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi keskin darajada oshganligining guvohi bo'ldik. Bu kabi investitsiyalarning oshishi nafaqat mamlakatimiz iqtisodiyoti rovojlantirishiga, balki aholi turmush farovonligi oshishiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2005-yil 11-apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3594-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2005-y., 15-16-son, 109-modda.
2. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X, Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. -T.: "Moliya". 2010, 303 b.
3. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb sahifasi.

